



## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK AMALIYOTIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING NAZARIY-METADOLOGIK TAHLILI

**Navruzbek Shavkatov,**

*PhD, Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrası,*

*Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston*

*Email: shavkatov\_navruzbek@tfi.uz*

*ORCID: 0000-0003-1305-2507*

## THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYSIS OF FINANCIAL RELATIONS IN PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP

**Navruzbek Shavkatov,**

*PhD, The Department of Corporate Finance and Securities,*

*Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan*

*Email: shavkatov\_navruzbek@tfi.uz*

*ORCID: 0000-0003-1305-2507*

### **JEL Classification: O1, O11**

**Annotatsiya.** Maqolada davlat-xususiy sheriklik amaliyotining muhim nazariy jihatlari, tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, sheriklar o'rtasida bo'ladigan o'zaro moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning muhim nazariy-metadologik jihatlari tahlil qilingan. Suningdek, davlat-xususiy sherikchiligi mexanizmlari, davlat va xususiy sektor hamkorligini samarali tashkil etish yo'nalishlari va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda davlat-xusuiy sheriklik munosabatlarining ahamaitli jihatlari o'rganilgan. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarning nazariy-jaihatlari bo'yicha ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Abstract.** The article analyzes important theoretical aspects of the practice of public-private partnership, specific features of organization, important theoretical and methodological aspects of mutual financial and economic relations between partners. In addition, the mechanisms of public-private partnership, the directions of effective organization of

public and private sector cooperation, and the important aspects of public-private partnership relations in the development of the country's economy were studied. In the practice of public-private partnership, scientific conclusions, practical proposals and recommendations have been developed on the theoretical aspects of financial relations.

**Kalit so'zlar:** Davlat-xususiy sherikligi, loyihalarni amalga oshirish jarayonlari, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, xususiy sherik, moliyaviy risklar

**Keywords:** Public-private partnership, project implementation processes, infrastructure project financing, private partner, financial risks

**Kirish.** Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari kundan-kunga dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning keskinlashuvi, Covid-19 pandemiyasi, davlat va biznes subyektlarida

iqtisodiy munosabatlarning murakkablashishi sharoitida DXSh mexanizmidan foydalanish zarurati yanada ko'proq namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda aholi o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishi ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar yuzaga keltirishi mumkin bo'ladi va biznes subyektlariga bunday funksiyalarini foyda evaziga yuklash istagi ortib boraveradi. Davlat-xususiy sherikligi uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik shakli sifatida bunday masalalarda yechim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu turdagi hamkorlikni tashkil etish, tegishli yo'nalishlarni ishlab chiqish va loyihalarini amalga oshirishda jahon tajribasini umumlashtirishgan holda mamlakatimizda joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Davlat bilan xususiy tarmoq o'rtasidagi sheriklik deganda turli yo'nalishlardagi biznes va iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Ya'ni, bu munosabatlar xususiy sektor resurslaridan umum jamiyat ehtiyojlarini qondirishda foydalanishni nazarda tutadi. Davlat bilan xususiy biznes hamkorligi umummilliy va iqtisodiy ahamiyatga molik yirik loyihalarni amalga oshirishga yirik xususiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sherikligi munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 105-bandiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal

xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd.dollardan iborat bo'lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. [1].

**Material va metod.** Angliyada davlat-xususiy sherikliklarni rivojlantirish komissiyasining (Commission on UK Public Private Partnerships) ma'lumotlariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklikning asosiy vazifasi "davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli maqsadlarga erishish uchun kelishilgan va xohishga asoslangan risklarni va daromadlarni taqsimlash munosabatlaridir" [2].

Kanada Davlat-xususiy sheriklik kengashi (Canadian Council for Public Private Partnerships) davlat-xususiy sheriklikni quyidagicha ta'riflaydi: DXSh - bu har bir sherikning tajribasiga asoslangan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi qo'shma faoliyat bo'lib, u resurslarni, risklarni va mukofotni tegishlicha taqsimlash orqali aniq davlat ehtiyojlarini eng yaxshi qondirish mexanizmidir" [2].

AQShning G'arbiy sohil infratuzilma birjasi (West Coast Infrastructure Exchange) davlat-xususiy sheriklik vazifasini "davlatning infratuzilma loyihalari hayotiy siklini samarali boshqarishga bo'lgan ehtiyojini, loyihalar samaradorligini oshirish va moliyaviy yo'qotishlar xavfini kamaytirish uchun xususiy sektor imkoniyatlari bilan bog'lash" deb ataydi [2].

Shunday qilib, xususiy va davlat (davlat) hamkorlar o'rtasida har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan loyihalar, risklarini taqsimlashga e'tibor qaratiladigan samarali kelishuvga davlat -xususiy sheriklik deyiladi.

Dunyoda iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarning globallashuvi, 2022-yilning butun dunyoda global siyosiy-moliyaviy keskinlashuvning kuchayganligi, mamlakatlar marakziy banklarining pul

kredit siyosatidagi keskin choralari, byudjet taqchilligi va davlat qarzlarning o'shishi, natijada mamlakatda infratuzilmaga ajratilishi rejalashtirilgan mablag'lar ko'lamining keskin kamayishi sabab bo'lmoqda. "Infratuzilmaga davlat investitsiyalari salmog'ining kamayishi mamlakat iqtisodiyotiga keskin ta'sir ko'rsatadi, bunday sharoitda, davlat xususiy sektor uchun infratuzilmaga qilgan investitsiyalardan oladigan moddiy rag'batini oshirish orqali xususiy investitsiyalarni infratuzilmani moliyalashtirishga jalb etishi lozim". [3] Fikrimizcha DXSh munosabatlarini mamlakatda rivojlantirish orqali bunga erishish mumkin bo'ladi.


Davlat va xususiy sheriklik (DXSh) - "xususiy sherik va davlat o'rtasida davlat mulki yoki xizmatlarini taqdim etish bo'yicha uzoq muddatli shartnoma bo'lib, bunda xususiy tomon muhim ish haqi to'lovi natija bilan bog'liq risk va boshqaruv mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi" deb ta'riflanadi. Davlat-xususiy sheriklikda moliyaviy munosabatlar samaradorligi bo'yicha davlatning va xususiy sherikining samaradorliklarini alohida taqqoslangan holda, xususiy sherik mehnatni boshqarish munosabatlari, tashkiliy tuzilmalar, rag'batlantirish tizimlari xodimlarni tanlash va boshqa ko'rsatkichlarda davlatdan ko'ra samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bunda, DXSh davlatlar va xususiy sektor uchun ularning infratuzilmani boshqarishda tashkiliy tuzilmalarda yuzaga keladigan samarasizlikni kamaytirish uchun zarur bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, DXSh xususiy sektor tajribasini qo'llash orqali infratuzilma investitsiyalari uchun kapital miqdorini va faoliyat samaradorligini oshirishi mumkin, ammo bu jarayonlar har doim ham turli xil loyihalar uchun bir xilda amalga oshiravermaydi. Bunda loyiha xususiyati daromadlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun davlat-xususiy sheriklikda infratuzilmning turli hil sohalariga turlicha yondashuv zaur bo'ladi. "Iqtisodiy va ijtimoiy hayotning bir qancha sohalarida DXSh ning turli xil potentsial afzalliklari mavjud bo'lsa-da, yaxshi tashkil etilgan DXSh amaliyoti tizimli va samarali moliyaviy munosabatlarda aks ettirilmasa, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli muvaffaqiyat ehtimolidan yuqori bo'lishi mumkin". [5] Shuningdek, davlat-xususiy sheriklikning muvaffaqiyatli bo'lishida davlat moliyasining barqarorligi va bozor hajmi infratuzilmaga investitsiyalar ko'lamiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, soliq yukining baland bo'lishi hamda yuqori darajada inflyatsiya salbiy ta'sirini namoyon qiladi. [6]

**Natijalar.** Jahon banki DXShni ishlab chiqarish va infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi davlat va xususiy biznes o'rtasida qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tuzilgan shartnoma va davlat byudjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish vositasi sifatida belgilaydi. Davlat-xususiy sheriklik – davlat va xususiy sektor o'rtasida loyihani yanada samaraliroq amalga oshirish sharti bilan sheriklar tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan qonuniy-huquqiy asosga ega o'zaro manfaatli hamkorlikdir deb ta'riflash mumkin. Yoki tomonlardan birining loyihani amalga oshirish imkoniyati yetarli bo'lmasa, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan rersurslar, shu jumladan tashkiliy-huquqiy ma'lumotlarni to'liq o'z ichiga olgan kelishuv asosida tashkil qilinishi mumkin. Mazkur hamkorlikdan ko'zlangan maqsad ijtimoiy ahamiyatga ega ob'ektlarni hayotga tatbiq etish, shuningdek, iqtisodiyotga xususiy sarmoyalarni jalb etishdan iborat bo'ladi. DXSh shakli - bu davlat (munitsipal tuzilma) va xususiy sektor o'rtasidagi birgalikda moliyalashtirish va risklarni taqsimlashni o'z ichiga olgan qonuniy rasmiylashtirilgan munosabatlar tizimi hisoblanadi. Shu bilan

birga, davlat mulki, davlat (munitsipal) xizmatlar bunday munosabatlarning predmeti hisoblanadi. DXSh loyihalarini

tashkil etish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.



**1-rasm. DXSh loyihalarini tashkil etish sxema-algoritmi [7]**

1-bosqich. Ushbu bosqichda barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan investorlar, banklar (va boshqa moliya institutlari), jamoat tashkilotlari va boshqalar bilan. loyihaning xulosasi bo'yicha dastlabki maslahatlashuvlar o'tkaziladi. Bu loyihani tashkil etishga qo'yiladigan talablarni va uning potentsial ishtirokchilarining hohishlarini aniqlash uchun zarur. Keyinchalik, davlat-xususiy sheriklik loyihasi natijalarining zarur byudjet, ijtimoiy, moliyaviy ta'siriga, shuningdek, loyihani tayyorlash hajmi va qiymatiga erishish uchun tartib o'rnatiladi. Xuddi shu bosqichda vazifalarni taqsimlash va ushbu tadbirlarni amalga oshirish tartibini hisobga olgan holda ishlarni bajarish uchun buyurtmalarni joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tuziladi. Loyihani tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilinadi (tegishli darajadagi hokimiyat qarori va mahalliy hokimiyat organlariga vazifalarni belgilash). Keyingi qadam loyihani tayyorlash uchun moliyalashtirish manbalarini aniqlash bo'lib, ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

– viloyat (shahar) darajadagi byudjet mablag'lari;

– xususiy sektor mablag'lari;

– qarz mablag'lari (tayyorgarlik bosqichi oxirida to'lash sharti bilan ham jalb qilinishi mumkin);

– loyihalarni ishlab chiqish uchun davlat yoki munitsipal hokimiyat organi tomonidan vakolat berilgan tashkilotning mablag'lari.

2-bosqich: DXSh loyihagini tayyorlash (DXSh loyihagini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish - shartnomani imzolash). Ushbu bosqichda loyihani amalga oshirish uchun xususiy sherik topish maqsadida tender tashkil etish va o'tkazish, u bilan ushbu loyiha doirasida vakolatli organ tomonidan belgilangan shartlar, maqsad va vazifalarni belgilab beruvchi DXSh shartnomasini tuzish ishlari olib boriladi. Bundan tashqari, ishlarni moliyalashtirish manbasiga qarab, tanlovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha shartnoma tanlovdan tashqari asosda yoki oldingi bosqichda tayyorlangan hujjatlarga muvofiq tuzilishi mumkin. Tanlov g'olibi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida shartnoma imzolash amalga oshiriladi.



3-bosqich: DXSh loyahasini tayyorlash (DXSh shartnomasini imzolash - uni kuchga kiritish).

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi xususiy investor tomonidan loyihaga byudjetdan tashqari moliyalashtirishni qat'iy ravishda imzolangan DXSh shartnomasi doirasida jalb etishdan iborat. DXSh shartnomasi xususiy investordan loyihaga mablag'larni jalb qilish uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy shartnomalar tuzilganligi, ularning tuzilishi ustidan nazorat va hujjatlar qabul qilinganligi to'g'risida tasdiqlash jarayonlaridan keyin kuchga kiradi.

4-bosqich: amalga oshirish bosqichiga kirgan loyihalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini monitoring qilish.

Ushbu bosqichda tomonlar tomonidan tuzilgan DXSh shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Vakolatli organ har bir loyiha bo'yicha tomonlarning shartnoma majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish uchun foydalanish rejasini, shu jumladan ish jadvalini tuzadi. Jadvalga muvofiq majburiyatlarning o'zaro bajarilishi yuzasidan taraflar o'rtasida so'rov o'tkazish choralari ko'riladi. Muammolar mavjud bo'lsa, muammolarni hal qilish uchun muzokaralar jarayoni (yig'ilish) tashkil etiladi. Yig'ilish natijalariga ko'ra, vakolatli organ ma'sul bo'lgan faoliyat turlari, shuningdek, DXSh loyihasi uchun shartnoma va me'yoriy hujjatlarni tuzatish masalalari aniqlanadi. Loyihani amalga oshirish bo'yicha DXSh shartnomasida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq, so'rov natijalari va muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida moliyalashtiruvchi tashkilotlar xabardor qilinadi.

Davlat-xususiy sherikligi – bu kooperativ kelishuvning bir ko'rinishi bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlat va

xususiy sektor vakillarining investitsiya, infratuzilma, innovatsiya loyihalarida hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, shuningdek davlat ahamiyatiga molik dasturlardagi sheriklik munosabatlari tushuniladi. «Davlat-xususiy sektor sherikligi» atamasi infratuzilma va boshqa xizmatlar doirasida davlat va xususiy korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi bir qator iqtisodiy munosabatlarni tavsiflaydi. Bunday iqtisodiy munosabatlar jarayonida foydalaniladigan boshqa tushunchalar orasida xususiy sektor ishtiroki (Private Sector Participation) va xususiylashtirish (Privatization) kabi tushunchalar ham mavjud bo'lsa-da, ushbu tushunchalar orasida ma'lum bir farqlar mavjud. [8]

Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi biznes subyektlarining ishlab chiqarish, maishiy xizmatlar va ijtimoiy infratuzilmani tashkil qilish, boshqarishda hamda ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashda ishtirok etishlarini ifodalaydi. [9]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat va xususiy sheriklik munosabatlari ijtimoiy majburiyatlarga va amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlarga va davlat investitsiya siyosatiga rioya qilishda hukumatning ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rni va rolini ifodalaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Davlat bilan xususiy sherikligi infratuzilma obyektlari loyihalarini ishlab chiqish, rejalashtirish, moliyalashtirish, qurish va foydalanish maqsadida yo'lga qo'yilgan davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi xo'jalik munosabati va iqtisodiy aloqalari bo'lib, bunday munosabatlar qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish maqsadida uzoq muddatlarga mo'ljallangan bo'ladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan DXShning maqsadi - tegishli davlat byudjetlari hisobidan taqdim etilishi kerak bo'lgan xizmatlar, ish va iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga xususiy


investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'lib hisoblanadi.

To'g'ri tashkil etilgan davlat va xususiy sheriklik munosabatlari subyektlar o'rtasida vazifalarni, majburiyatlarni va moliyaviy risklarni eng optimal tarzda taqsimlaydi. Davlat-xususiy sherikchiligidan davlat tomonidan davlat idoralari, jumladan, vazirliklar, qo'mitalar, mahalliy hokimiyat organlari yoki davlat korxonalari munosabatlarda ishtirok etadi. Xususiy sektor tomonidan sheriklik munosabatlarida mahalliy yoki xorijiy xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, biror loyihaga tegishli texnik yoki moliyaviy imkoniyatga ega yuridik shaxslar yoki investorlar bo'lishi mumkin.

Milliy va global miqyosdagi beqaror iqtisodiy va siyosiy muhitni hisobga olgan holda, davlatlar va xususiy firmalar infratuzilmaga xususiy investitsiyalari bo'yicha oqilona va oqilona qarorlar qabul qilish uchun zamonaviy va dolzarb yondashuvlarga asoslanishi talab etiladi. Shu sababli, ushbu maqola keng qamrovli makroiqtisodiy ma'lumotlar to'plamidan foydalangan holda DXSh mexanizmlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni o'rganish va tahlil dolzarb hisoblanadi.

Kam daromadli va rivojlanayotgan mamlakatlarning odatda yuqori bo'lgan xarajatlar yoki qarz talablari umumiy davlat balansi ko'rsatkichlarini aks ettirishi mumkin. Bu mamlakatlarda keng ko'lamli

infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun mablag' yetishmasligi muammo bo'lishi, umumiy davlat byudjetining defitsiti, va fiskal cheklovlar mamlakatlarni ko'proq DXSh amaliyotini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Shuningdek, "makroiqtisodiy beqarorlik qanchalik yuqori bo'lsa, DXSh amaliyoti shunchalik ko'p bo'lishiga intilishini" prognoz qilinadi, biroq, moliyaviy risk darjasi pastroq bo'lgan biznes muhitini afzal ko'radigan xususiy investorlar uchun DXSh loyihalarining jozibador pasaytirishi mumkin. Makroiqtisodiy barqarorlikning (yoki beqarorlikning) nazariy jihatdan muhim prognoz qiluvchi omillari bo'lgan inflyatsiya va davlat qarzi kabi boshqa omillar DXSh amaliyotining asosiy muhim omillari emas. Odatda, inflyatsiya darajasi DXShlar soniga salbiy ta'sir ko'rsatishi tahmin qilish mumkin, chunki, narx barqarorligining yo'qligi xususiy investorlarning risklarga moyilligini pasaytirishi va shu bilan ularning DXSh loyihalariga investitsiyalar kiritishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Fikrimizcha, inflyatsiya va DXSh o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning yo'qligining dalillaridan biri shundaki, ko'plab xususiy korxonalar o'zlarini yuqori inflyatsiyaning salbiy ta'siridan himoya qilish uchun davlat tomonidan narx yoki daromad kafolatlarini, minimal daromadlilik kafolatlarini olishga moyilligi yuqori bo'lishi mumkin.




**2-rasm. Rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlarda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun talab etiladigan mablag'lar salmog'i (YaIM ga nisbata foizda) [2]**

Rivojlanayotgan va o'rtada daromadli mamlakatlarda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun talab etilayotgan investitsiya mablag'lari miqdori YaIMga nisbatan tahlil qilinganda, 2030 yilga borib bunday mamlakatlarda infratuzilmaga bo'lgan talab hajmining pasayishi, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika, transport-suv xo'jaligida amalga oshirilishi kutilayotgan investitsiya loyihalari hajmi bugungi kunga nisbatan pasayish tendensiyasida ekanligini kuzatish mumkin. Bunda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga ajratilishi kutilayotgan investitsiya mablag'lari miqdori 2022 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5.5 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2030 yilga borib 2 foizni tashkil etilishi prognoz qilinmoqda.

2021-yilda Xususi sektorning infratuzilmaga investitsiyalari 240 ta loyiha bo'yicha 76,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan, bu past va o'rtada daromadli

barcha mamlakatlar YaIMning 0,26 foizini tashkil etadi. Bu 2020 yilda 251 ta loyiha bo'yicha jalb qilingan 51,0 milliard AQSh dollariga nisbatan investitsiya majburiyatlarining oshganini ko'rsatdi. va 2021-yilda (240 ta loyiha) 2020-yilga (251 ta loyiha) nisbatan kattaroq loyiha chiptalari hajmining ko'rsatkichi, quyida batafsil tavsiflangan. Xususi sektor investitsiya majburiyatlari 2020-yilga nisbatan 49 foizga oshdi, bu tiklanishning aniq belgilarini ko'rsatmoqda. Biroq, 2021 yilgi majburiyatlar avvalgi besh yillik o'rtacha ko'rsatkichdan (2016-2020) 12 foizga pastroq edi. Loyihalar soni 2020 yil darajasidan 4,4 foizga kamaydi (1-rasm). 2020-yilga nisbatan loyihalar soni kam bo'lishiga qaramay, 2021-yilda ko'proq mamlakatlar PPI loyihalari haqida xabar berishdi. 2021-yilda PPI bo'yicha investitsiya majburiyatlari bo'lgan 50 ta davlat bor edi, 2020-yildagi 45 ta davlatdan. PPI loyihalari bo'lgan 50 ta davlatdan 19 tasi Sahroi Kabirda joylashgan.



**3-rasm. Kam daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun talab etiladigan mablag'lar salmog'i, (YaIM ga nisabata foizda) [2]**


Birlashgan millatlar tashkilotining 2030-yilgacha mamlakatlarni barqaror rivojlanish maqsadlari strategiyasi doirasida olib borilgan tahlillariga ko'ra,

dunyoda kam daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun bugungi kunda yalpi ichki mahsulotiga nisbatan

qariyb 4,7 foiz moliyaviy resurslari ehtiyoji mavjud bo'lsa, bu ko'rsatkich 2030 yilga borib 15 foizdan oshishi prognoz qilinmoqda. Bunda eng katta ulush sog'liqni saqlash ta'lim va transport infratuzilmasi sohalarida kuzatilishi keltirib o'tilgan. Fikrimizcha, rivojlanayotgan mamlakatlarning infratuzilmasini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish mamlakatlarda infratuzilmaga bo'lgan talabni qanoatlantirishda muhim o'rin tutadi.

Infratuzilmani moliyalashtirishda davlat tashqi qarzi ulushini oshib borishi va ular hisobiga olingan moliyaviy resurslar

ma'lum bir darajada chegaralanganligi evaziga, davlat-xususiy sheriklik orqali xususiy investorlarning mablaglarini infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirish mamlakatda tashqi qarzga bo'lgan ehtiyojni ma'lum bir darajada chegaralash imkonini beradi. 2022 yil davomida O'zbekiston davlat qarzi 2,9 mlrd dollarga ko'payib, 29,2 mlrd dollarni yoki YaIMga nisbatan 36,4 foizni tashkil etdi. Davlat qarzining 90 foizdan ortiq qismi xorijiy valyutada jalb qilingan. 2023 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekistonning davlat qarzi 29,2 mlrd dollarga etdi. Bu – mamlakat tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.



4-rasm. O'zbekiston davlat qarzi o'zgarish dinamikasi (mlrd. dollarda)<sup>1</sup>

Davlat qarzi 2022 yil 3-choragiga nisbatan 3,1 mlrd dollarga ko'paygan, YaIMga nisbatan ulushi ham 2,3 foizga oshib 34,1 foizdan 36,4 foizga yetgan. Taqqoslash uchun, 2022 yilning 1 oktyabr holatiga davlat qarzi 26,2 mlrd dollarni tashkil etgan.

Davlat qarzining umumiy miqdori yildan yilga oshayotgan bo'lsa-da, uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 2020 yildan keyingi davrda kamaygan. Jahon banki (JB) prognozlariga ko'ra, O'zbekiston hukumati o'zining qarz olish cheklovlariga rioya qilishda davom etishi kutilmoqda.

Davlat qarzi va umumiy tashqi qarz 2024 yil oxiriga kelib YaIMning mos ravishda 32 va 55 foizigacha bosqichma-bosqich kamayishi mumkin.

#### **Birinchiidan, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan**

**mamlakatlarda** infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko'lami doimo o'sib boruvchi xarakterga ega. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun davlatda 2 ta muqobil yechim mavjud: soliqlarni oshirish yoki tashqi qarz va investitsiya mablag'larini jalb qilish. Soliqlarni oshirish istiqbolda

<sup>1</sup> <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/> - Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



iqtisodiyotni rivojlantirish rag'batlariga putur yetkazishi hisobga olinsa, ko'plab rivojlangan davlatlar ikkinchi yo'lni tanlashni afzal ko'rishadi.

**Ikkinchidan**, kovid va postkovid davri dunyoning ko'plab mamlakatlarida tashqi qarz o'sishiga olib keldi. Xususan, ushbu omillar ta'sirida 2020 yilda qarz jalb qilish miqdori keskin oshganini (17,8 mlrd dollardan 23,4 mlrd dollarga) ko'rish mumkin.

**Uchinchidan**, davlat byudjeti taqchilligining oshib borayotgani. 2022 yilda ushbu ko'rsatkich YaIMning 3,9 foizini yoki qariyb 35 trln so'm tashkil etdi.

2023 yilda O'zbekiston nomidan va kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan bitimlarning umumiy qiymati 4,5 mlrd dollarni tashkil qilishi, shundan davlat byudjetini qo'llab-quvvatlash, byudjet taqchilligi uchun 2 mlrd (bu o'tgan yilga nisbatan 500 mlrd dollarga kam), investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun esa 2,5 mlrd dollar (bu o'tgan yilga nisbatan 500 mln dollar

ko'p) jalb qilinishi belgilangan.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, mintaqalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish borasidagi hukumatimizning kompleks yondashuvi allaqachon o'zining natijalarini berish bilan birga istiqbolda jadal sur'atlardagi taraqqiyotimizga ham xizmat qiladi. Bunda eng asosiysi integratsiyalashgan va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot orqali aholi turmush farovonligi yuksalib borishi uzviy ravishda ta'minlanadi. Bu jarayonlarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini alohida o'rni va ajamoyati mavjud. Zero, mamalakat iqtisodiy jihadan rivojlanishi infratuzlmaga bog'liq ekan, infratuzilmani rivojlantirishning enq ma'qul yechimlaridan bir shubhasiz, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari hisoblanadi. Binobarin, davlat-xususiy sheriklikda moliyaviy munosabatlarni tahlil etish, uni rivojlantirish moliyaiy islohotlarda asosiy masalalardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA"gi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. The World Bank. (2019). What are public private partnerships?. <https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/overview/what-are-publicprivate-partnerships>.
3. Yurdakul, Hakan, Rifat Kamaşak, and Tülay Yazar Öztürk. "Macroeconomic drivers of Public Private Partnership (PPP) projects in low income and developing countries: A panel data analysis." *Borsa Istanbul Review* 22.1 (2022): 37-46.
4. Leibenstein, H. (1966). Allocative efficiency vs. X-efficiency. *The American Economic Review*, 56(3), 392e415.
5. Ahwireng-Obeng, F., & Mokgohlwa, J. P. (2012). Entrepreneurial risk allocation in public-private infrastructure provision in South Africa. *South African Journal of Business Management*, 33(4), 29e39.
6. Hammami, M., Ruhashyankiko, J.-F., & Yehoue, E. B. (2016). Determinants of public private partnership in infrastructure. IMF working paper, WP/06/ 99.



7. «Государственно-частное партнерство: теория и практика» Варнавский, В.Г., Королев, В.А. // Гос. ун-т — Высшая школа экономики. — М.: Изд. дом ГУВШЭ, 2010

8. Йескомб Э.Р. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования (Public-Private Partnership Principles of Policy and Finance.) — М.: [Альпина Паблишер](#), 2015. — 457 с.

9. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е. А. // Общество и экономика. — 2007. — № 5–6. С.111.

10. Чернов С.С., Суханов И.С. Вопросы оценки эффективности реализации социально значимых проектов // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. 2016. № 4 (37). С. 92–97.

11. Felsing K. Former staff member of the Asian Development Bank's (ADB) Regional and Sustainable Development Department (RSDD), Special Initiative Group (RSOD-SI) /Public-Private Partnership / Handbook. 2017. 100p.